O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240- sonli qaroriga muvofiq Jamiyat tomonidan o‘z funksiyalarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda “e-anticor.uz” elektron platformasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlari amalga oshirildi.

Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mavjud xavf-xatarlarni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijalariga doir ayrim **fakt va raqamlar:**

- 2025-yil yakunlari bo‘yicha Jamiyat faoliyati Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi reytingida **“yaxshi”** toifasiga kiritildi;
- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida **27 ta** shtat birligidan iborat **komplayens tuzilmalari** tashkil etilib, munosib nomzodlar bilan to‘ldirildi;
- Jamiyatga 2026-yil davomida kelib tushgan **50 ta murojaat** o‘rganilib, **24 ta** murojjat yuzasidan **o‘rganish** o‘tkazildi va **tushuntirishlar** berildi va **1 ta** murojaat yuzasidan o‘rganish materiallari huquqni muhofaza qiluvchi organlarga **yo‘naltirildi.**

**ta** murojaat yuzasidan **xizmat tekshiruvi** natijasida **14 nafar** xodim **intizomiy** javobgarlikka tortildi, **6 nafar xodim** egallab turgan **lavozimidan ozod etildi**;

- monitoring va nazorat tadbiri davomida **10,06 mlrd so‘m** mablag‘lar **maqsadsiz sarflanishining oldi olindi, 1,26 mlrd so‘mlik** moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlanib, bartaraf etildi;
- **4 ta mavjud** manfaatlar to’qnashuvi hamda **9 ta ehtimoliy** manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko‘rildi;
- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati

**“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ko‘rish va natijalari to‘g‘risida**

Bahola
Jamiyat
funk

samaradorligini hamda aholi va jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida onlayn so‘rovnomalar o‘tkazilib, so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning **65,7 foizi** Jamiyatda korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni **samarali** deb baholagan. Shu bilan birga, davlat xaridlari va kadrlar bilan ishlash jarayonlarida shaffoflikni oshirish, korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berish kanallari bo‘yicha xabardorlikni kuchaytirish hamda jarayonlarni raqamlashtirish yuzasidan takliflar bildirildi;

- daromadlar tushumini nazorat qilish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish borasida bir qator ishlar, xususan, Jamiyatning **“E-nakl”** (e-nakl.uz) tizimida yuk tashish hamda bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlardan tushadigan barcha daromadlarni hisobga olish tahlil qilish uchun mo‘ljallangan axborot tizimini yaratish borasida ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda;

- **“hrm.railway.uz”** platformasida xodimlarning ma’lumotlarini saqlash, xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish, davriy va navbatdan tashqari attestatsiyadan hamda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tizimi yo‘lga qo‘yilib, **1S** dasturi tizimi ma’lumotlari bilan o‘zaro integratsiya qilish ishlari olib borilmoqda;

- yo‘lovchi va yuk poyezdlarida harakatlanuvchi lokomotivlarda mashinistlar tomonidan foydalaniladigan qog‘oz shakldagi marshrut varaqalari butunlay bekor qilinib, **“Mashinistning elektron marshruti”** axborot tizimi joriy etildi;

- Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish hamda ularning **ta’qib qilinmasligi** kafolatlarini ta’minlash maqsadida Jamiyat boshqaruvi raisining 2026-yil 15-iyundagi 304-N-son buyrug‘i bilan “Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish hamda ularning ta’qib qilinmasligi kafolatlari to‘g‘risida”gi **Reglament** tasdiqlandi;

- 2026-yil 22-iyuldagi 374-N-sonli buyruq bilan tasdiqlangan “Jamiyat xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan **sovg‘a qiymati va uni tasarruf etish tartibi** to‘g‘risida”gi Nizom sovg‘alar bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda sovg‘alarni qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi;

- Jamiyatning 2026-yil 22-avgustdagi 437-N-son buyrug‘i bilan xodimlarning yangi tahrirdagi **Odob-axloq qoidalari** to‘g‘risidagi nizom orqali xodimlarning xizmat faoliyatidagi xulq-atvoriga qo‘yiladigan talablar, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish, xizmat vakolatlarini suiiste’mol qilishning oldini olish hamda odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan

me’yoriy mexanizmlar kuchaytirildi;

- xaridlar, ombor hisobi, shartnomalar ijrosi va to‘lovlar haqidagi ma’lumotlarni yagona axborot muhitida birlashtirish, operatsiyalarni amalga oshirgan hamda tasdiqlagan mas’ul shaxslar harakatlarini qayd etish nazarda tutadigan **1C:ERP tizimini joriy etish** bo‘yicha ishlar olib borilmoqda;

- Jamiyatning **40 nafar** markaziy apparat xodimi "ISO 37001:2025 standarti asosida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqish" mavzusidagi **malaka oshirish** o‘quv kursida, **170 ga** yaqin Jamiyat xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish **virtual akademiyasi** elektron platformasida malaka oshirish o‘quv kursida o‘qitildi;

- korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish uchun hokimiyat organi vakillari, IIB va Transport prokuraturasi mas’ul xodimlari, sohaga doir mutaxassislar ishtirokida davra suhbatlari, videokonferensiyalar, jumladan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ hududiy bo‘linmalarida **38 ta yig‘ilish tadbirlari** amalga oshirildi hamda ularda **3200 dan ortiq** ishchi-xodimlar ishtiroki ta’minlandi.

Shuningdek, tizimda aniqlangan korrupsiyaga oid jinoyatlar va huquqbuzarliklarni bartaraf etish va ularning takrorlanishining oldini olish maqsadida xodimlar hamda fuqarolarni korrupsiya alomatlari, noqonuniy vositachilik va pul talab qilish holatlari haqida mavjud aloqa kanallari orqali xabar berishga undash, mazkur kanallardan foydalanish tartibini keng tushuntirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, joylarda tushuntirish va profilaktika tadbirlari o‘tkazilib, qoidabuzarliklarning kelib chiqish sabablari hamda ularga imkon yaratgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, mas’ul xodimlarning javobgarligini oshirish va ichki nazorat tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.